

**BUYUK KELAJAGIMIZNI MARD VA OLIJANOB XALQIMIZ BILAN BIRGA QURAMIZ**

**Xamrayev Og`abek Oybek o`g`li**

*Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari ta`lim yo`nalishi 3-bosqich talabasi*

*E-mail: [ogabekxamrayev678@gmail.com](mailto:ogabekxamrayev678@gmail.com)*

*Telefon: +99891 277 47 27*

*Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug` ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo`ladi.*

**Shavkat Mirziyoyev**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Prezident Shavkat Mirziyoyevning shu nomdagi asarining asosiy jihatlari va asardan chiqarilgan xulosalar haqida so`z boradi.*

**Kalit so`zlar:** *Buyuk kelajak, muqaddas qadriyatlar, tarixiy xotira, umumbashariy taraqqiyot, ijtimoiy siyosat, ma`naviy jasorat, globallashuv jarayonlari.*

Shavkat Miromonovichh Mirziyoyev O`zbekiston Prezidenti lavozimini egallashi bilan O`zbekiston tarixida o`ziga xos yangilanishlar boshlandi. Albatta bu o`zgarishlar zahirida uning bir qancha yillar xalq orasida ishlagani va xalq dardini yaqindan bilishi ham sababchidir. Ammo qanday bo`lmasin, qaysiki siyosatchining qilayotgan ishlari va maqsadlarini yaqindan angelay olish ancha mushkul ishdur. Albatta, shunday vaqtda shu shaxs qalamiga mansub asarlar bizga vaziyatni tushunib olishga yordam beradi. Xuddi Islom Abdug`aniyevich Karimovni shaxs va siyosatchi sifatidagi qarashlarini "Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch" asari ochib bera olganidek, Shavkat Mirziyoyevni ham "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" asari bizga yaqindan tanishtira oladi. Asarda Prezidentimizning xalqimizga bo`lgan mehri o`laroq, har bir viloyatga alohida ta`rif berib o`tilgan. Shuningdek Shavkat Mirziyoyevning rahbar sifatida O`zbekistonda yurgizayotgan siyosati ham yaqqol ochib berilgan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev saylov oldi dasturlarida dastlab Qoraqolpog`iston Respublikasiga tashrif buyurdilar. Shuningdek, yuqorida tilga olingan asarlarida Qoraqalpoq diyoriga atalgan bo`lim "Yuragimga, qalbinga yaqin insonlar" deya nom olgan. Yurtboshimiz ushbu tashrifdagi nutqida

“Men nafaqat o‘zbek xalqining, balki qoraqolpoq xalqining ham farzandiman” deya urib, o‘zining qoraqolpoq xalqi bilan tanishuvi, aniqroq aytganda esa qoraqolpoq zaminiga mehr qo‘yib, bir umr unga maftun bo‘lishi talabalik davridan boshlaganligini aytadi. Ushbu bo‘limda qoraqolpoq xalqining urf-odat va qadriyatlarini, dard-u armonlari va orzu-intilishlari haqida boy tasavvurlar va ularning asoslari haqida so‘z yuritiladi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligimizni qo‘lga kiritib, yangi taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘yganidan so‘ng xalqimizning xohish-irodasi, asriy orzu-intilishlariga tayangan holda, sho‘ro davridan og‘ir meros bo‘lib qolgan ma‘muriy buyruqbozlik tizimini tubdan isloh qilish, uning o‘rnida mohiyat e‘tibori bilan butunlay yangi-erkin bozor munosabatlarga asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etishga azmu qaror qilindi. Tabiiyki, bu maqsadga erishish uchun qanday strategik yo‘l, islohotlarning qanday shakl va usuli maqul ekani haqida olimlar va mutaxassislar, keng jamoatchilik vakillari tomonidan ko‘p o‘ylandi, atroflicha maslahatlashildi. Ana shunday keng miqyosdagi o‘rganish va har tomonlama izlanishlar natijasida O‘zbekistonda bugungi kunda butun dunyoda o‘zbek modeli sifatida tan olingan taraqqiyot modeli ishlab chiqilgan. Bu modelning asosiy tamoyillari - ya‘ni, iqtisodning siyosatdan xoli ekani, davlatning bosh islohotchi bo‘lishi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, islohotlarni tadrjijiy asosda bosqichma-bosqich amalga oshirish prinsiplari barchamizga yaxshi ayon. Ta‘kidlash joizki, bugun hayotda o‘zini to‘liq oqlagan bu modelning negizida avvalambor hayotga realistik qarash, programatik yondashuv mujassam, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Mustaqilligimiz yillarida biz erishgan eng katta yutuq - bu jamiyatimizdagi o‘zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir va biz bu bebaho boylikni asrab-avaylash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. O‘lis va yaqin tariximiz shuni ko‘rsatadiki, xalqimiz doimo ma‘naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug‘ tuyg‘u uning hayotida yillar, asrlar o‘tgan sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki, xalq ma‘naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g‘ayrat va ilhom olib, o‘zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi. Shuni aytib o‘tmoqchimanki, har kuni, har soatda fidoiy bo‘lish, o‘zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlikdir.

Xulosa qilib aytganda ushbu kitobda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev barcha hududlardagi infra tuzulmalarni o‘rganib chiqqan holda, o‘sha hududlarga tegishli dasturlarni aytib o‘tganlar. Har bir hududning o‘ziga xos tuzulishi, ularning mamlakat iqtisod, sanoat, sport

madaniyatiga qo'shgan xissalari haqida alohida ta'kidlaydi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, mamlakatimiz rivoji uchun har bir huduning o'z hissi bor.

### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan biga quramiz. Toshkent. "O'zbekiston" 2017
2. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/23-prezident-asarlari>
3. <http://taqi.uz/main/2005-buyuk-kelajagimizni-mard-va-olijanob-xalqimiz-bilan-birga-quramiz-mavzusida-tadbir-hisoboti.html>
4. [https://znanio.ru/media/sh\\_m\\_mirziyoyevning\\_buyuk\\_kelajakni\\_mard\\_va\\_olijanob\\_xalqimiz\\_bilan\\_birga\\_quramiz\\_asari\\_taqdimoti-363697](https://znanio.ru/media/sh_m_mirziyoyevning_buyuk_kelajakni_mard_va_olijanob_xalqimiz_bilan_birga_quramiz_asari_taqdimoti-363697)